

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA GRAMMATIK XATOLIKLAR BILAN ISHLASH METODIKASI

Tangirova Sevinch Alisherovna

Qarshi davlat universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) yo'nalishi 1-kurs talabasi

E-MAIL tangirovasevinch28@gmail.com

Kirish: Bugungi globallashuv jarayonida xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir paytda, o'quvchilarning grammatik bilim va ko'nikmalarini shakllantirish muhim masalaga aylangan. Xatoliklar har qanday tilni o'rganish jarayonining ajralmas qismidir. Xususan, grammatik xatoliklar nafaqat bilim darajasining belgisi, balki metodik yondashuvning qanday tanlanganiga ham bog'liqdir. Ushbu tezisda o'zbek va ingliz tillarini o'rgatishda uchraydigan grammatik xatoliklar tahlil qilinib, ularga qarshi samarali metodik yondashuvlar taklif etiladi.

Asosiy qism: Grammatik xatoliklar – bu tilning morfologik va sintaktik me'yorlariga zid ravishda sodir etilgan yozma yoki og'zaki shakldagi ifodalar bo'lib, ular kommunikativ maqsadga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbek va ingliz tillarida bu xatolar quyidagi asosiy turlarga bo'linadi: Morfologik xatolar: so'z turkumlarining noto'g'ri qo'llanilishi, ot va fe'llarning affikslarida xatoliklar (masalan, ingliz tilida fe'ning zamon shakllari bilan bog'liq xatolar; o'zbek tilida otga qo'shimchalarni noto'g'ri qo'shish). Sintaktik xatolar: so'z tartibi va gap bo'laklarining noto'g'ri joylashuvi (masalan, "He go to school" o'rniga "He goes to school"). Kelishik va kelishikda bog'lanish xatolari: ayniqsa o'zbek tilida egalik qo'shimchalarini ishlatishda yoki moslashuvda yo'l qo'yilgan xatolar.[1] Qarama-qarshi tuzilmalarni noto'g'ri qo'llash: inkor va so'roq shakllarni aralashtirib yuborish. Bu xatolar til o'rganuvchilarning ona tili bilan o'rganilayotgan til orasidagi tipologik farqlarni yetarli anglamasligidan kelib chiqadi. O'zbek tili agglutinativ (qo'shimchalar orqali grammatik ma'no ifodalovchi), ingliz tili esa analitik (sozlamalar va yordamchi so'zlar orqali) tildir. Bu esa grammatik struktura

va me'yorlarning shakllanishida tub farqni yuzaga keltiradi. Zamon shakllari: ingliz tilida zamonlar tizimi ko'proq va murakkabroq (16 dan ortiq), o'zbek tilida esa 3 asosiy zamon mavjud. So'z tartibi: ingliz tilida qat'iy (SVO), o'zbek tilida esa nisbatan erkin. Yordamchi fe'llar: ingliz tilida ularning grammatik rolini tushunish muhim bo'lsa, o'zbek tilida ularning roli cheklangan. Ushbu farqlarni e'tiborga olmagan holda dars jarayonida grammatik xatolar soni ortadi.

Grammatik xatolarni bartaraf etish uchun zamonaviy yondashuvlar quyidagi metodlarga asoslanadi:

a) Analitik metod: xatoni aniqlab, tahlil qilish, uning sababi va oqibatlarini tushuntirish. Bu usul kognitiv yondashuvga asoslanadi.[2]

b) Kontrastiv metod: o'zbek va ingliz tillari grammatik tuzilmalarini solishtirish orqali o'quvchiga strukturani chuqurroq tushuntirish. Misol: "He go to school" (noto'g'ri) va "He goes to school" (to'g'ri) o'rtasidagi farq.

c) Kommunikativ metod: grammatikani muloqot orqali o'rgatish. Ya'ni, xatoni dars davomida aniqlash va darhol muhokama qilish orqali tuzatish.

d) O'z-o'zini tahlil qilish usuli: o'quvchining o'zi yozgan matni yoki gapirishini tahlil qilib, xatolarni aniqlash va tuzatish.

e) Diagnostik testlar va mashqlar: maqsadli testlar yordamida o'quvchining aynan qanday grammatik xatolarga yo'l qo'yayotganini aniqlab, ularni tuzatishga yo'naltirish.[3]

Grammatik xatoliklarning asosiy sabablaridan biri bu ona tilining ta'siridir. O'zbek tilida mavjud bo'lmagan yoki boshqacha ishlatiladigan grammatik vositalarni ingliz tilida to'g'ri qo'llay olmaslik interferensiya deb ataladi.

Masalan, "He is doctor" iborasida artiklning tushib qolishi o'zbek tilidagi "U shifokor" gapiga to'g'ri keltirishga urinishdir.

Shu nuqtai nazardan, o'qituvchi har bir grammatik holatni ona tilidagi variant bilan taqqoslab tushuntirish orqali interferensiyani kamaytirishi mumkin.[5]

Xulosa: O'zbek va ingliz tillarida grammatik xatolar bilan ishlash o'ziga xos yondashuv va aniq metodikani talab etadi. Grammatik xatoliklarni aniqlash,

ularning sababini tahlil qilish va mos usullar orqali tuzatish til o'rgatuvchining muhim vazifasidir. Bugungi kunda interaktiv texnologiyalar, kommunikativ metodlar, individual yondashuv, hamda kontrastiv tahlil asosidagi metodikalar bu yo'nalishda yuqori samara bermoqda. Eng asosiysi, xatolarni til o'rganishning tabiiy qismi sifatida qabul qilib, ularni tahlil qilishga ijobiy yondashuvni shakllantirish zarur. Shu yo'sinda o'quvchilar nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri gapirish va yozishni, balki mantiqiy fikrlash, ifoda qilish, va muloqotda erkin bo'lishni ham o'rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ellis, R. (1997). Second Language Acquisition. Oxford University Press.
2. Larsen-Freeman, D. (2003). Teaching Language: From Grammar to Grammaring. Heinle.
3. Krashen, S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.
4. Azizov, M. (2015). Ingliz tili grammatikasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
5. Karimov, I. (2019). Kontrastiv lingvistika asoslari. Samarqand: SamDU nashriyoti.